

## **Influence of the work of the Azeri poet in the works of representatives of the Kokand literary environment**

**Oyzoda Yakhyokhanova,**

**talented student, Kokand DPI**

**Saidakbarova Mukaddas Muhammadrahimovna,**

**Philological Sciences Doctor of Philosophy (PhD), Kokand DPI**

**Annotation:** This article talks about the role of the Azerbaijani poet Fuzuli in Uzbek literature, as well as the interaction of Fuzuli's work in the works of poets and writers who lived and created in the Koqan literary environment.

**Key words:** Kokan literary environment, Fuzuli, creative influence, tatabbunavisl, mukhammas, takhmis, ghazal, ruba'i-mustazad.

Sharq she'riyati, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari poeziyasi o'tmish klassik adabiyotining barakali ta'siri ostida kamol topgandir. Adabiyot deb atalmish go'zal bo'stonga oshufta shoirlar mashhur so'z ustalarining ijodini o'rganmay turib she'riyat maydoniga chiqmagan. Har bir ko'zga ko'ringan shoir ijodining kamolga yetishuvida bu ustozlar ijodining samarali ta'siri ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning bilan birga har bir shoir u ustozlardan she'riyat ta'limini olar ekan, o'z ijodiy intilishlariga ko'ra yana ularning har biriga alohida ixlos qo'yadi. Shu sababli ayrim shoirlar ijodida Sharq klassik shoirlaridan birortasining ta'siri boshqalardan ko'ra to'laroq va aniqroq sezilib turadi. Taniqli adabiyotshunos To'xtasin Jalolov bu haqida shunday deb yozadi: Fuzuliy ulug' bobomiz Navoiydan ko'p ta'sirlanganidek, o'z navbatida, o'zbek adabiyotiga zo'r ta'sir ko'rsatgan san'atkordir. Hech bir shoir o'zbek klassik adabiyotiga Fuzuliychalik kuchli ta'sir o'tkazgan emas. Buning uch sababi bor: birinchisi- Fuzuliy tilining o'zbek tiliga yaqinligi; ikkinchisi- Fuzuliyning xushlafz, shirinzaabonligi; uchinchisi- Fuzuliy asarlarining badiiy barkamolligi... O'zbek shoirlari qariyb ikki asrdan beri Fuzuliy asarlariga maftun bo'lib keladilar. Bizning

shoirlarimiz uchun Fuzuliy badiiy balog‘atning simvalidir. Shunga ko‘ra, XVIII va XIX asrlar davomida yashab ijod etgan ko‘p zabardast shoirlar Fuzuliy g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar [1,163].

Bu hol XVIII-XIX asrlarda yashagan va ijod etgan qo‘qonlik shoirlar ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, jahon adabiyotida yuksak mavqeyga ega bo‘lgan hassos shoir, Ozarbayjon adabiyotining benazir siymosi, Mirzo Kenjabek ta‘biri bilan aytganda she‘r rutbasiga erishgan sohibi devon Muhammad Fuzuliy ijodi boy va rang-barang bo‘lib, ko‘lami va qudratiga ko‘ra birgina Ozarbayjon adabiyoti emas, balki Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida butun bir bosqichni tashkil qiladi. Shu jumladan, XVIII-XIX asrlarda, ilm-ma‘rifat keng yuksalayotgan bir davrda, Qo‘qonda yashab ijod etgan va o‘ziga xos birb muhit- Qo‘qon adabiy muhitini shakllantirgan ijodkorlarga ham eng ko‘p ta‘sir ko‘rsatgan shoir sanaladi. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Mahzuna, Hoziq, G‘oziy, Xon, Ado, Muqimiy, Muhyi kabi bu muhit vakillari; bundan tashqari Roqim, Miri, Y.Saryomi singari ijod ahli Fuzuliy an‘analarini mahorat bilan davom ettirdilar. Shaklan go‘zal, mazmunan rang-barang, badiiy barkamol asarlari bilan Sharq adabiyotini rivojlantirdilar. Turkiy g‘azaliyotni haddi a‘losiga ko‘targan qardosh Ozarbayjon xalqining otashnafas shoiri Fuzuliy she‘riyatidan ilhom olmagan biror shoirni topish qiyin. Uning nomi hamisha Navoiy nomi bilan yonma-yon kelgan. Shoirlarimiz uning g‘zallariga yuzlab, minglab muxammaslar, tatabbu‘lar, taxmislar bog‘laganlar, naziralar yozganlar. Xattotlarimiz uning kitoblarini qayta-qayta ko‘chirganlar. Fuzuliy ijodi Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari asarlarida jilvalanadi. Uning “kerakmazmi sango”, “cho‘x”, “o‘ldi o‘xshaydur”, “do‘ndirdi”, “do‘ndirmish”, “bengzatdim”, “tut”, “so‘r” radifli va boshqa ko‘pgina g‘azallariga badiiy jihatdan yuksak bo‘lgan tatabbu‘lar, naziralar yozganlar.

Ulardan biri Qo‘qon adabiy muhitining tashkilotchisi va homiysi, shoh va shoir, Amiriy taxallusi bilan ijod etgan Amir Umarxondir. Uning

ijodi Fuzuliy she'rlarining qattiq ta'siri ostida rivoj topganini ijodi bilan yaqindan tanishish chog'ida a'yon bo'ladi. Shoirning ("tut", "bengzatdim", "kerakmazmi sango", "cho'x", "do'ndirmish") g'azallariga tatabbu'lar yozadi, taxmislar bog'laydi. Shu o'rinda "tatabbu" o'zi nima? degan savolga javob berib o'tamiz. Tatabbu' (arb. biror narsaning izidan bormoq, ergashmoq) - biror she'rning uslubi (vazni, radifi, qofiyalari va ba'zi xarakterli san'atlari) ni saqlagan holda unga javob qilmoqdir [2,224]. Tatabbu'navislikning yorqin namunalarini Amiriy g'azallari misolida ko'ramiz:

**Fuzuliy:** "G'amzasin sevding ko'ngil, joning kerakmazmi sango?"

Tig'a urding jismi uryoning, kerakmazmi sango?" [3,43]

Shoirning ushbu g'azaliga Amiriy quyidagicha bayt bitadi:

**Amiriy:** "Xat chiqording, la'li xandoning kerakmasmu sango?"

Xizra verding, obi hayvoning kerakmasmu sango?" [4,49]

Amiriyning ushbu tatabbu'si shoir g'azaliga munosib shakl va mazmunda ifoda etilgan. G'azalda Amiriy Fuzuliy yo'lidan borib, lirik qahramonning ichki kechinmalari, uning ruhiy holatini atroflicha badiiy bayon etganligi ko'rinib turadi.

**Fuzuliy:** "Yondirib jonim, jahonso'z etma barqi ohimi

Osmon, xurshidi rahshoning kerakmazmi sango?" [5,43]

Yetti baytdan iborat ushbu g'azalning beshinchi bayti Amiriyda quyidagicha talqin qilinadi:

**Amiriy:** "Javr aylab kechalar yondurma ohim o'tini

Ey falak, bu qasr-u ayvoning kerakmasmu sango?" [6,49]

Shoir Amiriy tomonidan bitilgan mazkur misralar tatabbu'ning qonun-qoidalariga mos keladi, deya bemalol aytishimiz mumkin. Chunki she'riy san'atning talabiga binoan ikkinchi g'azal birinchi g'azalga taqliddan iborat emas, aksincha, shoir unga ijodiy yondashgan, mavzu yanada yorqinroq ifodalangan va badiiy saviya yuksalgan. Yoki "tut"radifli g'azalini ko'raylik. Fuzuliy g'azalining birinchi baytini Amiriy o'z g'azali maqtasida keltiradi:

**Fuzuliyda g'azal matlasi:** "Ey asiri dardi g'am, bir go'shai mayxona tut,  
Tutma Zahhoding muxolif pandini, paymona  
tut" [7,66]

**Amiriyda g'azal maqtasi:** "G'am ilojini may etar aydi Fuzuliy ham  
Amir,  
Ey asiri domi g'am bir go'shai mayxona  
tut"[8,63]

Amiriy ushbu g'azalida Fuzuliyning mayxona, paymona, parvona, devona kabi g'azal qofiya va radiflaridan ustalik bilan foydalanadi. Lekin shoir qofiya va radifda Fuzuliyga ergashsada, g'azalda bevosita uning fikrlarini davom ettirmagan. Balki ishq mavzusida o'ziga xos g'azal yaratgan. Chunki baytma-bayt solishtirganda ular orasida yaqinlik, umumiylik yo'qligini ko'ramiz. Hatto g'azallari matlasida ham muayyan tafovutlar ko'zga tashlanadi.

Shuningdek „bengzatdim”, „do'ndirmish” , „etma cho'x” radifli g'azallari ham mazmun va shaklda Fuzuliy g'azallariga juda yaqin. Qolaversa, shoirning “Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landin so'r” matlasi bilan boshlanuvchi g'azaliga ko'plab shoirlar taxmis bog'laganliklari ma'lum. Amiriy ham katta jur'at bilan unga nihoyatda teran, go'zal g'oya hamda mazmuni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi taxmis bog'lagan. Hatto Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslaridan birida ham Amiriy Fuzuliyi tilga olib o'tadi: “Fuzuliy birla Lutfiy ofarishdin aylamas tamkin” [9,452]. Bu esa Amiriyning o'z ijodiy faoliyatida ulug' shoir asarlaridan va yuksak badiiy

san'atidan bevosita bahramand bo'lganligiga yana bir bor iqrор bo'lamiz. Amiriyning g'azallaridagi kabi tab'i muxammas va musaddaslarda ham Fuzuliyona ohanglarni sezish mumkin. E'tibor bersak, Amiriy kabi rahnamo shoirning Fuzuliy g'azallariga tatabbu'lar bitgani Qo'qon adabiy jarayonida ozar shoirining ehtiromga sazovor ijodkorligini ko'rsatadi. O'z g'azallariga ilm-ma'rifatdan mustahkam "asos"- poydevor qurgan Fuzuliy ijodi ham bu muhit vakillarini chetlab o'tmagan. Ushbu davr adabiy jarayonida faol ishtirok etgan Nodira ijodida ham Fuzuliy ijodiy ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Amiriy kabi Nodira ham shoirning bir necha g'azallariga muxammaslar bog'lab, "tut" radfli g'azaliga tatabbu' bitadi.

**Fuzuliy:** "Ey fuzuliy, dahr zolining firibindan saqin,

O'lma g'ofil, er kabi tebran, ishing mardona tut"[10,66]

Fuzuliyning ushbu g'azali maqtasini Nodira o'z g'azalida quyidagicha talqin etadi.

**Nodira:** "Aylagil obod tavfiq adolat mulkini,

Komila, mavlo yo'lida himmati mardona tut"[11,72]

Nodira ushbu g'azalga tatabbu' bog'larkan qofiyalarida Fuzuliy va Amiriyga ergashadi. Fuzuliyning mayxona, paymona, parvona, vayrona, mardona; Amiriyning begona, janona, afsona g'azal qofiyalaridan unumli foydalangan holda badiiy barkamol, yangi mavzu va g'oyalar bilan sug'orilgan g'azal yaratadi. Uning ijodi bilan tanishar ekanmiz, Fuzuliy g'azallarining mavzu va g'oyasini quruq, behis takrorlamay, batamom yangi asar yarata olganligini guvohi bo'lamiz.

Xon taxallusi bilan ijod qilgan shoir Madalixon Umarxon og'li ham Qo'qonda tug'ilib, yoshligidan boshlab Umarxon saroyining dabdabali muhitida tarbiyalandi. Onasi Nodira va Amir Umarxon tashabbuslari bilan tez-tez tashkillanib turadigan adabiy majlislar Madalixonni shoirtabiat bo'lib tarbiyalanishiga sabab bo'lgan edi. Xon g'azallarida ham Fuzuliyona ohanglar

ufurib turadi. Ijodi davomida Fuzuliyning “Layli va Majnun”iga o‘xshatib, “Layli va Majnun” nomli bir doston yoza boshlagan bo‘lsa ham, tamomlay olmagan. Umuman, Xon Fuzuliy she‘rlarining qattiq ta’siri ostida yozar edi.

Qolaversa, Nodira yashab ijod etgan davr muhitida Uvaysiy ijodining o‘ziga xosligini ham e’tirof etish kerak. Shoirning yuksak badiiy mahorat egasi bo‘lishida Sharq adabiyotining yirik namoyondalaridan barakali ta’sirlangani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning g‘azallarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi buyuk namoyondalarning ijodiy ta’siri sezilib turadi. Shoira otashnafas Fuzuliyning bir necha g‘azallariga muxammaslar bog‘laydi, “Kerakmazmi sango?” radifli g‘azaliga tatabbu’ yozadi. Shuningdek, ushbu she’riy san’at qoidalariga rioya qilgan holda g‘azaldagi qofiyalar boshqacha tanlanadi. Bu esa uning o‘z salaflariga nisbatan yuksak hurmat saqlaganini ham bildiradi. Fuzuliy ushbu g‘azalining o‘zigayoq ko‘plab shoirlar tomonidan tatabbu’lar bitilganiga qaraganda, bu g‘azal ham o‘z davrida anchagina mashhur bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos o‘rin egallagan, uning shakllanishiga, rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan yana biri Muhyiddin Muhammad Rizo Oxund o‘g‘li Muhyidir. G‘azna shahrida tavallud topgan ushbu ijodkor XIX asr 50-yillarida Qo‘qon madaniy muhitiga kelib qo‘shiladi va shoir sifatida shuhrat qozonadi. Muhyi ijodida ozar shoiri Fuzuliyning ham ta’sir ko‘lami keng. Shoirning ko‘p g‘azallariga naziralar yozadi, muxammaslar bog‘laydi.

**Fuzuliy:** “Go‘shai abro‘laringda chashmi jodularmidur?  
Yo‘qsa kirmish yoya tirandoz hindularmidur?  
Iqdi shabnamdur guli tar uzra yoxud har taraf  
Qatra-qatra terdan ul ruxsor uza suvlarmidur? ”

[12,134]

Tajohulu- orif va tashbeh san'atlari bilan bezangan shoirning ushbu g'azaliga Muhyi vazn va radiflarini saqlagan holda quyidagi g'azalni bitadi.

**Muhyi:**

“Sarvi arardurmu yo shamshod yo tubomudur,

Fitnai oxir zamon yo ul qadi zebomidur

Zuhradur yo mushtariy yo oftobi xovariy,

Subhi sodiq yo magar ul orazi ra'nomidur

”[13,260]

Har ikki g'azal ham Ramal bahrida yozilgan. Muhyi bu naziralarida Fuzuliyning g'azallaridagi qofiyalardan hech birini ishlatmagan bo'lsa ham, ularga qofiyadosh so'zlar topib, mazkur g'azalning ham aynan shoirning g'azali bilan bir xil vaznda bitilganligi, ushbu g'azallarni Fuzuliy ijodi ta'sirida yaratganligini ko'rsatib turadi. Fuzuliy ijodi ta'sirida yaratilgan yana bir “Ala olur kezajak ul guli ra'no etagin ” bilan boshlanuvchi g'azaliga qofiya, radif, vazn bilan birgalikda mavzu va g'oyaviy xususiyatlarini saqlagan holda ohoriy libosdagi o'zgacha jozibali yangi bir nazira(o'xshatma) yozadi.

**Muhyi:**

“Dutmang ey xalqi jahon shohidi dunyo etagin,

Duta sizlarga na hojat g'am-u g'avg'o etagin

”[14,313]

Shu qatori, shoirning “Aylar orzu” g'azaliga ham o'ziga xos bir muxammas bog'lagan.

Bularning barchasini shoirning o'z ustoziga muhabbat va ixlosining bir ko'rinishi deb qarash kerak.

XIX asr 1-yarmida tatabbu'navislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo'qonda edi. Fuzuliyning xizmatlari natijasida bu borada turkiy she'riyatda ijodiy an'ana davom etgan. Va o'z ijodi ta'siri bu muhit vakillari asarlarida yaqqol bo'y ko'rsatadi.

Bu adabiy muhitda muhim ijtimoiy va badiiy estetik ahamiyatga ega ijodkorlar hisoblanmish G'oziy, Mahzuna, Dilshodi Barnolar ham ijod borasida Fuzuliyning o'ziga ustoz bilgan. She'rlarining mazmuninbilan ham, dunyoga, atrof-muhitga munosabatini ko'rsatishda, badiiy san'atlardan foydalanishda ham Fuzuliy yo'li, uslubini qo'llagan. Uning g'azallariaga muxammaslar bog'lagan.

Bu davr adabiy muhiti haqida gap ketarkan Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo'lgan Sul-tonxon To'ra Ado haqida ham aytish darkor. Ado Qo'qon adabiy muhiti rivojiga shoirlilik bilan birga moddiy va ma'naviy ko'maklari bilan ham hissa qo'shgan.

Umarxonning arkida bir marosim ijro etilib har tomondan fozillar, ajib va shoirlar to'planib "Malikush shuaro" Sul-ton xo'ja eshon Adoning taxti rayosatida adabiy majlis bo'lib shoirlar o'z she'rlarini o'qub, tahsinga loyiq bo'lganlar mukofotlanganlar[15,144]

Sul-tonxo'ja Ado she'riyatida maktab yaratgan Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy kabi daholarning tahsilini olgan. Shoir o'z salaf-lari qatorida Fuzuliyning ham ustoz sifatida e'tirof etib, uning she'rlarini mutolaa qilar, uning g'azallariga muxammaslar bog'lar edi. Hozirda bizga ma'lum bo'lishicha, u Fuzuliy ruboiylaridan bir nechasini ruboiy-mustazod qilgan ekan. Bu haqida adabiyotshunos O. Jo'raboyev ozarbayjonlik olim-a Jannat Nagiyeva va uning "Ozarbayjonda Navoiy" nomli tadqiqoti to'g'risidagi maqolasida quyidagilarni yozadi: Amir Umarxon davridagi adabiyotga bo'lgan yuksak e'tibor, jumladan, Fuzuliy asarlarining nusxalaridan bir nechasi o'sha vaqtda ko'chirilgani va ular hozirda Ozarbayjon FA Qo'lyozmalari Institutida saqlanishi haqida ma'lumot beradi. Yana shu fond-dagi Sul-tonxon Ado Ahroriy tomonidan tartib berilgan bir manba haqida ham xabar beradi. Shunisi e'tiborliki, asosan, ruboiylar jamlangan bu nodir qo'lyozmada Navoiy va Fuzuliy ruboiylaridan bir nechasi Ado tarafidan ruboiy-mustazod qilingan ekan[16,74]



Bundan ko‘rinadiki, Ozarbayjon shoiri Fuzuliy XVIII-XIX asrlar o‘zbek adabiyotiga, shu jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlariga eng ko‘p ta’sir qilgan, binobarin, o‘z asarlari bilan bu davr adabiyoti taraqqiyotida juda katta ro‘l o‘ynagan betakror shoirdir. Uning she’rlaridagi to‘lqinlantiruvchi kuch, o‘ynoqilik, chuqur mazmun va dard o‘tining harorati o‘zidan keyingi davr adabiy jarayonlarida sezirarli iz qoldirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbek adabiyoti tarixi ” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.Samarqand 2018.
2. Yoqubjon Is’hoqov. “So‘z san’ati so‘zligi ”. Toshkent “O‘zbekiston” 2014.
3. Muhammad Fuzuliy asarlar. Ikki jildlik.I jild devon. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1968.
4. Amiriy. Devon I matn: O‘zbekcha she’rlar.-Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
5. Muhammad Fuzuliy asarlar.Ikki jildlik.I jild devon. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1968.
6. Amiriy. Devon I matn: O‘zbekcha she’rlar.-Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
7. Muhammad Fuzuliy asarlar. Ikki jildlik.I jild devon. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1968.
8. Amiriy. Devon I matn: O‘zbekcha she’rlar.-Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
9. Amiriy. Devon I matn: O‘zbekcha she’rlar.-Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
- 10.Muhammad Fuzuliy asarlar. Ikki jildlik.I jild devon. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1968.
11. Nodira-Komila. Devon. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2001.
- 12.Muhammad Fuzuliy asarlar. Ikki jildlik.I jild devon. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1968.
13. “O‘zbek adabiyoti tarixi ” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.Samarqand 2018.
14. “O‘zbek adabiyoti tarixi ” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.Samarqand 2018.

15. Qayumov P. “Tazkirayi Qayumiy”.-Toshkent “ O‘z FA Qo‘lyozmalari Instituti tahririy nashriyot bo‘limi”, 1999-yil.1-jild.

16. “O‘zbek adabiyoti tarixi ” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.Samarqand 2018.

17. Muqaddas, Saidakbarova. "INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.

18. Саидакбарова, Мукаддас. "" TARIXI MULUKI AJAM"(" ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ") КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК." *Theoretical & Applied Science* 12 (2018): 122-126.

19. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy's creative work." *Scientific journal of the Fergana State University* 1.4 (2018): 106-108.